



## AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI

**Muallif:** Abdullajonov Arabboy Ibroxim o'g'li<sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14504491>

### ANNOTATSIYA

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora oshib borayotganligi tufayli o'z fuqarolarini, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog'lagan, o'sib kelayotgan avlod va bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash ta'lim-tarbiya muassasalari pedagog-o'qituvchilari oldida turgan dolzarb vazifaga aylanganligi to'g'rsidagi ma'lumotlar tahlili mazkur maqolada aks etilgan.

**Kalit so'zlar:** Axborotlashgan jamiyat, bo'lajak mutaxassis, ma'naviyat, madaniyat, internet, internet madaniyati, mediamadaniyat.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishda ilg'or milliy ma'naviy-axlokiy qadriyatlar va mezonlar asos bo'lishi lozim. Komil inson tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi.

Hammamizga ma'lumki, uchinchi ming yillikning ijtimoiy-madaniy mohiyati jahon iqtisodiyatining globallashuvi, jamiyatni axborotlashtirish, ilmu fan, texnika, turli xil ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining jadal rivojlanishi hamda ma'naviy qadriyatlarning o'zgarishi bilan bevosita bog'liqdir.

Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarining hayotimizga beqiyos ta'sirini har jabhada kuzatish mumkin, bejizga XXI asr global axborot asri deb atalmagan. Shubhasiz, axborot texnologiyalari insonlar hayotiga shu darajada chuqur kirib bormoqdaki, ularni umummadaniy kontekstdan chiqarib tashlab bo'lmaydi. Shuning bilan birga e'tirof etish lozimki, mediaaxborotni uning iste'molchilariga bo'lgan nafaqat ijobiy, balki salbiy ta'siri ham oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi 200-sonli "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan kompyuter texnologiyalarini o'quv jarayonida keng joriy etish hamda ularni faol qo'llanilishi ta'lim muassasalarining o'qituvchi-pedagoglari oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Tabiiyki, hozirgi ta'lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi, uning ma'naviy-ma'rifiy madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi [2].

“Axborot asri” deb nom olgan XXI asrda mamlakat va hududlar o‘rtasida axborot almashinuvi kengayib, tobora tezlashdi. Axborot texnologiyalarning jadal rivojlanishi dunyo bo‘yicha yirik axborotlashgan jamiyatni vujudga keltirdi. Bu, o‘z navbatida, davlat va jamiyatlar hayotining barcha sohalarida jiddiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda [2].

Axborotlashgan jamiyat davrida har bir o‘quvchi o‘zining ongli hayotining ilk davrlaridan boshlab kerakli axborotlarni mustaqil ravishda izlash, mediakanallari orqali ko‘rgan, o‘qigan va eshitganlariga nisbatan ijodiy munosabatda bo‘lishni o‘rganishi kerak, mediamatnlarni tanqidiy tahlil qilish va baholay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozimdir.

Hozirgi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda internet iste‘molchilari soni tobora ortib bormoqda. So‘nggi yillar mobaynida internet global tarmoqqa aylanib ulgurdi. Buning natijasida dunyoda nafaqat axborotlashgan jamiyat yuzaga keldi, balki jahon hamjamiyatida globallashuv jarayonlari tezlashib ketdi.

Bugungi kundagi o‘qituvchining pedagogik mahorati kundalik hayotda yuqori darajada axborotlashgan va texnokratlashgan jamiyatda voyaga yetayotgan o‘smirlar bilan mashaqqatli muloqotlar sinoviga duch kelmoqda. Yagona axborot makonini yaratish mediaaxborotni qabul qila olish va medialashgan muloqotni amalga oshira bilishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda mediakompetentlik shaxsning muhim sifatlaridan biridir, uni shakllantirish esa – umumiy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Kompyuterlarning asosiy vazifalari axborotlar ustida amallar bajarish hisoblanib, jamiyatda axborot ham bilim manbai, ham eng asosiy muloqot vositasi bo‘lib hisoblanadi. Har kim har doim biror ishni bajarish yoki biror maqsadga erishish uchun axborotdan foydalanadi. Agarda inson kundalik axborotlar va yangiliklardan xabardor bo‘lmas ekan, u jamiyatdan uzilib qolishi muqarrardir. Lekin shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda o‘quvchilar ko‘pincha foydaliroq ma‘lumotlar olish o‘rniga foydasiz ma‘lumotlarga chuqur berilib ketishlari, ayniqsa, internetdagi ma‘lumotlarga qiziqishlari kundan kunga ortib bormoqda [3]. Bundan ko‘rinib turibdiki, axborotlarning ijobiy va salbiy jihatlarini ham e‘tibordan qoldirmaslik kerakdir. Axborotlarning ijobiy tomoni shundan iboratki, o‘z vaqtida olingan to‘g‘ri va sifatli axborot insonlar, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi, zamonaviy bilimlar egasi bo‘lishi imkonini beradi.

Axborotlarning salbiy tomoni shundan iboratki, hozirgi kunda ayrim g‘arb davlatlaridan kirib kelayotgan bizning milliy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan axborotlar va qarashlar hamda insonlar ongini zaharlovchi ma‘lumotlar ham mavjud. Ayniqsa, bunday ma‘lumotlar internet tarmog‘i orqali keng tarqalmoqda. Internet va SMS xabarlar orqali tarqalayotgan jamiyatimizga, qadriyatlarimiz va an‘analarimizga, davlatchiligimizga zid bo‘lgan nojo‘ya axborotlar yoshlarning ongini zaharlashi va ularni noto‘g‘ri yo‘llarga boshlashi mumkin [1]. Shuning uchun ta‘lim beruvchi tashkilotlar hamda pedagoglardan zamonaviy ta‘lim texnologiyalari, ayniqsa, mediata‘lim asosida vujudga kelgan mediakompetentlik tushunchasiga e‘tibor berishga ehtiyoj zarurligi oydinlashib bormoqda.

Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, mediakompetentlik tushunchasi ostida yotadigan bir necha atamalar, jumladan, mediamadaniyat, mediatarg‘ibot, mediata‘lim,

mediaaxborot, kompyuter madaniyati, mediasavodxonlik kabi atamalarga e'tiborliroq bo'lish barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin egallaydi.

Mediakompetentlikning yo'nalishlaridan biri bo'lgan televidenie orqali axborot qabul qilishda ko'plab telekanallardagi mediakliplar va tomoshalarni namoyish qilinishi, undagi yoshlarning kiyinish odobi, qo'shiqlarning ma'nosizligi va saviyasining pastligi, ko'rsatuvni olib boruvchilarning o'zini tutishi va ular tomonidan foydalanadigan so'zlar milliy qadriyatlarimizga zid kelib, yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

YuNESKO ning tahliliy materiallarida qayd etilishicha, har bir inson o'zining hayoti davomida o'rtacha 3 milliondan ziyodroq reklamalarga duch kelarkan. Ushbu reklamalarni biz televidenie, radio, gazeta, jurnallar, Internet orqali ko'rishimiz mumkin. Reklama bugungi kunda insonlar ongi uchun kurashda eng kuchli ta'sir vositasiga aylangan. Hozirda reklama sanoati shu darajada rivojlandiki, unda insonlar ongini manipulyatsiya qilishning tasavvur qilib bo'lmaydigan usul va vositalaridan foydalaniladi [1].

Masalan, Red Bull, Energizer va shu kabi energetik ichimliklar reklamasini olaylik. Go'yoki ushbu ichimliklar kuch-quvvat bag'ishlovchi effektga ega deb reklama qilinadi. Butun dunyoda ushbu ichimlikni iste'mol qiluvchilarning o'rtacha yoshi 14-18 ni tashkil qilar ekan. Mana shu reklama ta'sirida asosan o'smir yoshlar, hali organizmi to'la shakllanib ulgurmasdan, bu ichimliklarni me'yoridan ortiq iste'mol qilishini va oqibatda uning zararidan nobut bo'lganlarini ham kuzatish mumkin [4].

Internet tarmog'i orqali borgan sari targ'ib etilayotgan milliy an'analarga va urf-odatlarimizga hamda axloq normalariga umuman to'g'ri kelmaydigan film va kliplar yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir ko'rsatib, oila degan muqaddas tushunchalarni parchalanishiga sabab bo'lmoqda. Afsus bilan shuni aytishimiz kerakki, ko'p hollarda bunday salbiy holatlar ta'lim muassasalarida hamda talaba-o'quvchilar o'rtasida ham sodir bo'lmoqda. Ko'plab informatsiyaviy tahdidlarning yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir davrda ana shu jarayonlarni psixologik tahlil qilish va yoshlarimizni bunday tahdidlardan muhofaza etishning yo'llarini izlab topib, hayotga joriy etish juda muhim vazifa hisoblanadi [6].

Bunday sharoitda mediakompetentlikni rivojlantirish, uning zamonaviy talablarini hisobga olgan holda shakllantirish hamda pedagogik sharoitlarini aniqlash kerak. Hozirda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda oliy talim muassasalari talabalarining axborot texnologiyalari borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediakompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash lozim.

Mutaxassis Yevgeniy Morozovning "Tarmoq uydirmasi" ("The Net Delusion") nomli kitobida yozilishicha, ijtimoiy tarmoqlar beg'am va erinchoq odamlar avlodini tarbiyalamoqda [5]. "Deyli Meyl" ("The Daily Mail") nashrida chop etilgan Oksford universiteti professori Syuzan Grinfildning maqolasida inson ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlar ijtimoiy tarmoqlar bilan ham bog'liq ekani ta'kidlanadi. Aniqlanishicha, o'ta oddiy virtual muloqotlar insonda ruhiy og'ishlarni vujudga keltirar ekan. Ya'ni, odam ijtimoiy muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga moslasha olmaydigan bo'lib qoladi. Shuningdek, kelajakka ishonchning yo'qolishi, o'ziga nisbatan noxolis baho berish, tushkunlik, tajovuzkor xatti-harakatlar, murosasiz fikrlar, ijtimoiy faollikning susayishi kabi holatlar ko'zga tashlanadi. Ta'kidlash kerakki, ijtimoiy tarmoqlarning doimiy mijozlari verbal muloqotga kirishish ko'nikmasini yo'qotadi, masalan, suhbat chog'ida

ular suhbatdoshining ko'zlariga qaray olmaydi. Demak, ijtimoiy tarmoqlarga murojaat etayotgan o'smirlarga, eng avvalo, yoshlarga Internetdan foydalanish madaniyatini o'rgatish kerak.

Dunyo mamlakatlari maktab, kollej, institut o'quv dasturlariga "axborot xavfsizligi", "hayot xavfsizligi", "yo'l harakati xavfsizligi" "texnika xavfsizligi", "yong'in xavfsizligi", "oziq-ovqat xavfsizligi" degan fanlarni kiritishgan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ta'lim muassasalari dasturlariga "mediata'lim" degan maxsus o'quv fanini kiritishgan. Shu bois mediata'limning joriy etilishi alohida dolzarb ahamiyatga ega. Mediata'lim xalqimizning urf-odatlariga, milliy qadriyatlarimizga tayangan holda, umuminsoniy qadr-qimmatlarga asoslangan holda tashkil etilishi kerak. Mediata'lim yoshlarimizni zamonaviy OAV bilan xavfsiz va samarali muloqot qilishga tayyorlaydi, ularda media ogohlikni, media savodxonlikni, mediamadaniyatni va mediakompetentlikni shakllantiradi [7].


Nima uchun bugungi kunda ta'limga bunday atama kerak bo'lib qoldi? Chunki mediata'lim har bir o'quvchi-talabalarda media maxsulotlar va axborotlar bilan ishlashda ijodiy yondashuvni, muloqot qilish ko'nikmasini, tanqidiy fikrlashni, axborotlar orqali uzatilayotgan asosiy maqsadlarni va yashirin g'oyalarni aniqlash, mediamahsulotlarni tanqidiy tahlil qilish va baholash, axborotlarni filtrlash kabi ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Mediata'lim yoshlarda mediamadaniyatni va savodxonlikni shakllantirib, ma'naviy-estetik va intellektual jihatdan ularning nutqini, muloqot qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda internet tarmog'i yordamida turli sahifalardan, jumladan, Youtube, Mytube, Facebook, Telegram, Instagram, WhatsApp, Twitter kabi axborot uzatish vositalaridan olinayotgan turli xil ko'rinishdagi axborotlarni yopish va taqiqlash, uzatilayotgan turli syujetlarni chegaralashning imkoniyati kamroq bo'lganligi sababli, katta sahnada "Mediata'lim" tushunchasining paydo bo'lishi, uning kelajakda ta'lim sohasida rivojlanishi imkoniyatlarini yanada orttirib yuboradi [4].

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y, bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovni qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak" degan fikrlari har birimizga katta ma'suliyat yuklaydi. Zero, hozirgi kunda milliy mentalitetimizga, tarbiyamizga zid bo'lgan, jamiyatimizni o'z xavf-xatarlari bilan tashvishga solayotgan asosiy muammo bu informatsiyaviy tahdidlar muammosidir. Ushbu muammo jamiyatimizning ertasiga, o'quvchi-yoshlarimizning umumtarbiyasi, kelajak hayotiga o'zining qora soyasi bilan katta tahlika solmoqda [2]. Ma'lumki, hozirgi kunda ta'lim oluvchilarning ongiga informatsiyaviy tahdidlarning, ommaviy madaniyatning turli xildagi salbiy ko'rinishlari kirib kelayapti



Ushbu fikrlardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, ya'ni talabalarning mediakompetentligini rivojlantirishga ijtimoiy va informatsion omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Buni ushbu 1.1-rasmda ko'rishimiz mumkin:



1-rasm. Mediakompetentlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar

“Axborot texnologiyalari” va “Mediakompetentlik”ning ijtimoiy va pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirishga ijtimoiy va informatsion omillar o'z ta'sirini o'tkazashi. Axborotlashgan jamiyatda bo'lg'usi o'qituvchilarning ijtimoiy hamda informatsion omillarni mazmunini qarab chiqishga imkon berdi.

Xulosa qilib aytganda, barkamol avlodni voyaga yetkazish, ta'lim sohasida “Axborot texnologiyalari” va “Mediakompetentlik”ni yanada rivojlantirish uchun rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanish, o'quv rejalariga mediakompetentlik tushunchalarini yoritib beruvchi fanlarni kiritish va metodik qo'llanmalar yaratish hamda tinglovchilar va o'quvchilarga yetkazish, mediamadaniyat, mediasavodxonlik va mediata'lim sohalarini rivojlantirish davr talabidir.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirishning muomosing yechish yo'llari. Dunyo xorij olimlarning tajribasi va fikr muloxazalari asosida amalga oshirilip. “Informatika va axborot texnologiyalari” kursini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari, multimedia-texnologiyalar vositasida rivojlantirish. Multimedia asoslariga oid, mediakompetentlik darajasini oshirishga qaratilgan maxsus kurslarni, pedagogik faoliyatda ham mediakompetentlikning yuqori darajasini namoyon qilish imkonini beradi.

Xulosa. Demak, onlayn ta'limda asosiy e'tiborni o'quv uslubiy materiallarni tayyorlashga qaratish darkor. Chunki o'quv uslubiy materiallarning sifati onlayn ta'lim sifatining eng asosiy omillaridan biridir. O'quv uslubiy material qanchalik tushunarli va batafsil bo'lsa, shunchalik u talabaga foydali bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Begimkulov U. Sh., Djuraev R. X., Isyanov R. G., Sharipov Sh. S., Adashboev Sh. M., & Soy M. N. (2011). Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent, 177.

Djuraev R. X., & Turgunov S. T. (2012). Education management. T.: Voris-Nashriyot.

Soy M. N., Djuraev R. X., & Taylakov N. I. (2007). Sozдание электронных учебников: teoriya i praktika. Monografiya. Gosudarstvennoe nauchnoe izdatelstvo «Uzbekiston milliy ensiklopediyasi, 3.

Temirov, A. A., & Salimova, H. R. (2019). Use of modern information and communication technologies in the training of teachers. In Proceedings of the Republican scientific-practical conference "Innovations in the development of information and communication technologies." Karshi (pp. 170-171).

Temirov A. A., & Habibulloyev D. S. & G'ulomov G'J. (2021). Masofaviy ta'limning boshqaruv tizimlari va xizmatlarining umumiy tuzilishi. Academic research in educational sciences, 2(1), 203-212.

Adinayev Sh., Temirov A. Java dasturlash tilini o'rgatishda talabalarga mustaqil ish topshiriqlarini berishning namunaviy tuzilmasi Fizika, Matematika va Informatika 2/2021. 16-23b

Radjabov O.S., Rustamov B.X., Temirov A.A. Strategiya razvitiya ikt v respublike uzbekistan tatu xabarlari 2 (50), 90-99

